



## SHAXS

*Andijon davlat pedagogika insituti Filologiya fakulteti*

*O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1- bosqich talabasi **Boboyeva Xurshida***

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada shaxs shakllanish jarayonlari va bu jarayonda ijtimoiy muhitning o'rni hamda ahamiyati yoritilgan. Bunda oila, ta'lim muassasalari, tengdoshlar guruhi, ommaviy axborot vositalari va jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning shaxsning dunyoqarashiga, xulq-atvoriga, qadriyatlariga ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, biologik va ijtimoiy omillarning o'zaro bog'liqligi, shaxs kamolotida muhitning hal qiluvchi roli ilmiy-nazariy jihatdan asoslab beriladi.

**Kalit so'zlar:** shaxs, shaxs shakllanishi, ijtimoiy muhit, jamiyat, oila muhiti, ta'lim-tarbiya, talim muassasalari, tengdoshlar guruhi, madaniyat, qadriyatlar, dunyoqarash, ijtimoiy munosabatlar.

## PERSON

**Abstract:** This article explores the processes of personality development and the role and significance of the social environment in this journey. It analyzes the influence of family, educational institutions, peer groups, mass media and social relations within society on an individual's worldview, behavior and values. Furthermore, the interplay between biological and social factors is examined, providing a scientific and theoretical foundation for the decisive role of the environment in the formation and maturation of the personality.

**Key words:** personality, personality formation, social environment, society, family environment, education and upbringing, educational institutions, peer group, culture, values, worldview, social relations.



## ЛИЧНОСТЬ

**Аннотация:** В данной статье освещаются процессы формирования личности, а также роль и значение социальной среды в этом процессе. Анализируется влияние семьи, образовательных учреждений, групп сверстников, средств массовой информации и общественных отношений на мировоззрение, поведение и ценности личности. Кроме того, научно-теоретически обосновывается взаимосвязь биологических и социальных факторов, а также решающая роль среды в развитии и самосовершенствовании личности.

**Ключевые слово:** личность, формирование личности, социальная среда, общество, семейная среда, образование и воспитание, образовательные учреждения, группа сверстников, культура, ценности, мировоззрение, социальные отношения.

Shaxs tushunchasi keng qamrovli tushuncha hisoblanadi. Har bir tugilgan inson individ hisoblanadi. Jamiyatda ijtimoiy munosabatlar va tarbiya natijasida shakllangan, ongli, axloqiy va ma'suliyatli ijtimoiy sifat shaxs hisoblanadi. Shaxsning o'sib rivojlanishi katta ahamiyatga ega. Yosh bola bir yoki ikki yosh paytidan unga tarbiya berish boshlanadi. Yetti yoki sakkiz yosh paytidan esa unga qo'shimcha ravishda ta'lim ham qo'shiladi. Har ikkalasi yillar mobaynida teng ravishda berib boriladi. Bilmagan narsalari tushuntirilib, qiziqishlariga asoslanib bolani kasb yoki hunarga yo'naltiriladi. Ayni shu paytdan boshlab bola o'z kelajagiga birinchi qadamni qo'yadi. Endi u omma orasida o'zini qanday tutish va qanday rivojlanish haqida fikr yurita boshlaydi. Agar bolani yoshlik davridan boshlab odamlar ichida ko'proq olib yurishsa, uning ijtimoiy aloqaga kirishishi oson kechadi va u katta shaxs bo'lib yetishadi.

Inson jamiyatda-odamlar orasida yashaydi va shu yerda rivojlanadi. Shaxsning shakllanish va rivojlanish jarayonida ijtimoiy muhit hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ijtimoiy muhit deganda biz insonni o'rab turgan sharoitlar, munosabatlar, qadriyatlar madaniy an'analar majmuasini



tushunamiz. Ushbu muhit har bir shaxsning qarashlarini, xatti-harakatlarini, qobiliyat va hayotiy maqsadlarini shakllantirishda ham katta ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy psixologiya va sotsiologiya fanlarining tajribalariga ko'ra, inson yolg'iz o'zi rivojlanmaydi. Uning shaxsiy qarashlari, sifatlari, intellektual qobiliyatlari va ruhiy holati, ijtimoiy ko'nikmalari atrofda muhit bilan doimiy ta'sir natijasida shakllanadi. Shaxs tug'ma holda tayyor bo'lib qolmaydi, balki ijtimoiylashuv jarayonida rivojlanadi.

Shaxsning shakllanishiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi: biologik omil, ijtimoiy muhit, ta'lim-tarbiya, shaxsning o'zining faolligi. Bu omillar orasida ijtimoiy muhit asosiy o'rinni egallaydi. Chunki inson jamiyatdan tashqarida shaxs bo'lib shakllana olmaydi. (Masalan, Maugli ham xuddi shunday edi. Ya'ni u jamiyatdan tashqarida-insonlardan yiroqda shaxs bo'lmadi, aksincha, tilini unutdi, inson ekanligini unutdi).

Ijtimoiy muhit-bu shaxsni o'rab turgan va unga doimiy ta'sir ko'rsatib turgan ijtimoiy munosabatlar, sharoitlar majmuasi hisoblanadi. U bir nechta tarkibiy qismlardan iborat. Bular: oila, ta'lim muassasalari, tengdoshlar jamoasi, mehnat jamoasi, madaniyat, urf-odat va an'analar. Shaxs shakllanishining asosiy mexanizmi- ijtimoiylashuvdir. Ijtimoiylashuv jarayonida inson jamiyat tajribasini o'rganadi, ijtimoiy me'yorini qabul qiladi va ijtimoiy me'yorlarni o'zlashtiradi. Psixolog G.M. Andreyeva ijtimoiylashuvni uch bosqichga ajratadi: 1. Boshlang'ich ijtimoiylashuv (oila davri) 2. Ikkinchi darajali ijtimoiylashuv (ta'lim) 3. Kattalar ijtimoiylashuvi (mehnat faoliyati). Har bir bosqich insonning shaxs bo'lib rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Oila-shaxs shakllanishining muhim ijtimoiy muhiti sanaladi. Bola hayotining dastlabki yillarida oila orqali nutq va muloqot ko'nikmalarini o'rganadi (masalan, oilada ota yoki ona turli qarg'ish so'zlar, so'kinishlardan foydalansa, bolaning nutqida ham bu namoyon bo'ladi). Oiladagi mehr-muhabbat, ota-onaning tarbiyaviy uslubi, oilaviy munosabatlar bolada o'ziga ishonch, mas'uliyatni shakllantiradi.



Tengdoshlar jamoasi, ayniqsa, o'smirlik va yoshlik davrida shaxs shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Aynan shu davrda mustaqil fikrlash, o'z o'rnini topish va ijtimoiy moslashuv rivojlanadi. Tengdoshlar ta'siri ham ijobiy va salbiy bo'lishi mumkin.

Ijtimoiy muhitning salbiy ta'sirlari va ularning oqibatlari. Agar shaxs ijtimoiy muhitdan ajralib qolsa, bu uning rivojlanishiga katta ta'sir o'tkazadi. Buning natijasida kommunikativ ko'nikmalarning rivojlanmasligi, hissiy intellektning pasayishi, depressiya va tashvish holatlari, ijtimoiy qo'rquvlar va fobiyalar yuzaga chiqadi. Shuningdek, noto'g'ri ijtimoiy muhit ham insonga salbiy ta'sir o'tkazadi. Masalan: yomon odatlarning shakllanishi, agressivlik va zo'ravonlik tendensiyalarining kuchayishi kabi. Ijtimoiy muhitdagi keskin o'zgarishlar yoki ziddiyatlar shaxsda stress holatini keltirib chiqaradi.

Yangi muammolar: shu bilan birga, raqamli muhit yangi muammolarni keltirib chiqarmoqda: internetga qaramlik, real va virtual hayot o'rtasidagi muvozanatni yo'qotish, shaxsiy ma'mumotlar xavfsizligi muammolari va shu kabilar.

## XULOSA

Xilosa qilib aytganda, shaxs shakllanishi murakkab uzluksiz jarayon bo'lib, unda ijtimoiy yetakchi rolni o'ynaydi. Inson tug'iliboq shaxs bo'lib qolmaydi, balki jamiyatda yashash, muloqot qilish va faoliyat yuritish jarayonida shakllanadi. Shaxs ijtimoiy muhitning passiv mahsuli emas, balki uning faol ishtirokchisi hamdir. Shaxs muhitni anglaydi, his qiladi va vaqti kelsa uni o'zgartirishga harakat qiladi. Demak, sog'lom ijtimoiy muhit va ongli shaxs o'zaro bog'liq holda jamiyat taraqqiyotini ta'minlaydi.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Vygotskiy L.S. Psixologiya rivojlanish nazariyasi. -Moskva:Pedagogika,1984.
2. Leontyev A.N. Faoliyat. Ong. Shaxs. -Moskva:Politizdat,1997.
3. Rubinshteyn S.L. Umumiy psixologiya asoslari. -Toshkent,1992.
4. Andreyeva G.M. Ijtimoiy psixologiya. -Moskva:Aspekt Press,2001.
5. Makarenko A.S. Tarbiya metodikasi. -Moskva,1988.
6. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. -Toshkent:Fan,2010.
7. Nurullo o'g'li, A.A. (2023). Sharq mutafakkirlarining asarlarida psixodiagnostikaga doir qarashlari.
8. Vaxabova O'.T. (2024). Globallashuv sharoitida axborot muhitining yoshlar ijtimoiy normalari shakllanishiga ta'sirining psixologik jihatlari. Современное образование (Узбекистан), (12(145)), 46-51
9. O'g'ilxon T.V. (2023). Axborot muhiti yoshlar ijtimoiy normalari shakllanishiga ta'sirini tadqiq etishning metodik jihatlari. Современное образование (Узбекистон), (11(132)), 15-22.